

INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

Absayitov Shodiyor

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini samarali o'rgatishning bir necha usullari hamda til va uni o'rganishda foydalaniladigan zamонавиy ta'lism texnologiyalaridan ham bir nechtaси yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Til, ingliz tili, tilni mustaqil o'rganish, ta'lism texnologiyalari, loyiha, qiziqish, faollik, interaktiv metodlar.

Abstract: This article highlights several ways to learn English effectively and some of the modern learning technologies in language learning as well.

Keywords: Language, English, independent language learning, educational technologies, project, interest, activity, interactive methods.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lism jaroyonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lism samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilar Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda: "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative problem solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; "Quvnoq topishmoqlar" (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; "Chigil yozdi" (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish; "Pantomima" (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular

tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi; "Hikoya zanjiri" (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi; "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun "Interpreter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; "Allomalar yig'ini" (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi; O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o'qitish usullarini tanlashdir. O'qituvchining vazifasi chet tillarini o'qitish jarayonida talabaning bilish faoliyatini faollashtirishdir. Hamkorlikda o`rganish, loyiha metodikasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet resurslar kabi Buzamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning o`rganish darajasini hisobga olgan holda o'qitishning individualizatsiyasi va farqlanishini ta'minlaydi. Chet tili darslarida kompyuterni o'qitish dasturlari bilan ishlash shakllariga quyidagilar kiradi: so'z boyligini o`rganish; talaffuz qilishni mashq qilish; dialogik va monologik nutqni o'rgatish; yozishni o'rgatish; grammatik hodisalarni ishlab chiqish. Internet-resurslardan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Global Internet dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalar va o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotni olish uchun sharoit yaratadi: mintaqaviy geografik materiallar, yoshlar hayotidagi yangiliklar, gazeta va jurnallardan maqolalar va boshqalar. Darslarda ingliz tilida Internet yordamida bir qator didaktik muammolarni hal qilish mumkin: global tarmoq materiallaridan foydalanib o'qish ko'nikma va Malakalarini shakllantirish; maktab o'quvchilarining yozish qobiliyatini oshirish; talabalarning so'z boyligini to'ldirish; talabalarning ingliz tilini o`rganish Motivatsiyasini shakllantirish.

Bundan tashqari, bu ish maktab o'quvchilarining ufqini kengaytirish, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda tengdoshlari bilan Ishbilarmonlik munosabatlari va aloqalarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash uchun internet-texnologiyalar imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi.

Xulosa qilib aytganda: Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar va o'yinlar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining sub'yektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Bekmuratova U.B. «Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish»

mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil

Отабоева, М.Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va

uning samaradorligi / М.Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный //

Молодой ученый. — 2017. — №4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL:

<https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)

N. Q. Xatamova, M. N.mirzayeva. «INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL

USULLAR» (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. «CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI

VOSITALARDAN FOYDALANISH». Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

O'. Hoshimov, I. Yoqubov. «INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI» (o'quv qo'llanma) Toshkent:

«Sharq» nashriyoti, 2003